

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA "DESIGN THINKING" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi,
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida dotsent v.b.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda dizayn tafakkur texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kreativ kompetensiyasi uning metodik salohiyati, reflektiv qobiliyati hamda innovatsion fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqot aralash metodologiya asosida tashkil etilib, empirik ma'lumotlar so'rovnoma, yarim strukturali intervyu va tizimli kuzatuv orqali yig'ildi. Natijalar dizayn tafakkur bosqichlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish o'qituvchilarning muammoni qayta formulalash, g'oyalar generatsiyasi va iterativ refleksiya ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida boshlang'ich ta'lim sharoitiga moslashtirilgan ijodiy faoliyatni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: dizayn tafakkur, Design Thinking, pedagogik kreativlik, kreativ kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, ijodiy faoliyat, innovatsion pedagogika, reflektiv yondashuv, muammoli ta'lim, divergent fikrlash, pedagogik loyihalash, empatiya, prototiplash, iterativ jarayon, kasbiy rivojlanish modeli.

Аннотация. В данном исследовании глубоко анализируются теоретические основы и практические возможности технологии дизайн-мышления в развитии творческой деятельности учителей начальных классов. В современной системе образования креативная компетенция педагога определяется его методическим потенциалом, рефлексивными способностями и уровнем инновационного мышления. Исследование было организовано на основе смешанной методологии, эмпирические данные были собраны посредством анкетирования, полуструктурированного интервью и систематического наблюдения. Результаты показали, что интеграция этапов дизайн-мышления в педагогический процесс значительно развивает навыки преподавателей по переформулированию проблемы, генерации идей и итеративной рефлексии. В конце исследования была разработана модель развития творческой деятельности, адаптированная к условиям начального образования.

Ключевые слова: дизайнерское мышление, Design Thinking, педагогическая креативность, креативная компетенция, начальное образование, творческая деятельность, инновационная педагогика, рефлексивный подход, проблемное обучение, дивергентное мышление, педагогическое проектирование, эмпатия, прототипирование, итеративный процесс, модель профессионального развития.

Abstract. This study provides a profound analysis of the theoretical foundations and practical possibilities of design thinking technology in developing the creative activities of primary school teachers. In the modern education system, a teacher's creative competence is determined by their methodological potential, reflective abilities, and level of innovative thinking. The study was organized based on a mixed methodology, with empirical data collected through questionnaires, semi-structured interviews, and systematic observation. The results showed that integrating the stages of design thinking into the pedagogical process significantly develops teachers' skills in problem reformulation, idea generation, and iterative reflection. At the end of the study, a model for the development of creative activity adapted to the conditions of primary education was developed.

Keywords: design thinking, design thinking, pedagogical creativity, creative competence, primary education, creative activity, innovative pedagogy, reflective approach, problem-based learning, divergent thinking, pedagogical design, empathy, prototyping, iterative process, professional development model.

Kirish. XXI asr ta'lim paradigmasi reproduktiv bilim berish modelidan konstruktiv, kompetensiyaga yo'naltirilgan modelga o'tish bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda pedagogning vazifasi tayyor axborotni yetkazish emas, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda ijodiy qaror qabul qilishga yo'naltirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy yondashuvi o'quvchilarning keyingi akademik muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik faoliyatda kreativlik ko'pincha intuitiv darajada qo'llanadi va metodologik jihatdan tizimlashtirilmagan. Bu esa ijodiy salohiyatning to'liq namoyon bo'lmasligiga sabab bo'ladi.

Dizayn tafakkur – bu inson ehtiyojlariga yo'naltirilgan, muammoni iterativ tarzda hal qilishga asoslangan tizimli yondashuvdir. U quyidagi nazariy konsepsiyalarga tayanadi:

- konstruktivizm (bilim faoliyat jarayonida shakllanadi);
- reflektiv pedagogika (tajribani tahlil qilish orqali rivojlanish);
- divergent fikrlash nazariyasi (ko'p variantli yechimlar yaratish).

Ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda dizayn tafakkur pedagogik vaziyatni tahlil qilish, o'quvchi ehtiyojini aniqlash va innovatsion metodik yechim ishlab chiqishni tizimlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda dizayn tafakkur texnologiyasining pedagogik samaradorligini aniqlash va ilmiy asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dizayn tafakkur konsepsiyasi (T. Brown, J. Liedtka va T. Ogilvie) innovatsion fikrlashni rivojlantirish va muammolarni inson ehtiyojlariga yo'naltirilgan holda hal qilishda samarali metodologiya sifatida e'tirof etiladi. Mahalliy tadqiqotlarda (N. Abduraxmonova, Z. Kalendarova va boshqalar) boshlang'ich ta'limda pedagogik kreativlikni rivojlantirish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish hamda integrativ yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, mavjud ilmiy ishlar o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirishda reflektiv faoliyat va innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, dizayn tafakkur texnologiyasini aynan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy faoliyatini tizimli rivojlantirishga yo'naltirilgan holda qo'llash masalasi yetarlicha kompleks o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot konsepsiyasi: Tadqiqot kvazi-eksperimental model asosida tashkil etildi. Aralash metodologiya qo'llanilishi ma'lumotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Ishtirokchilar tavsifi:

- 48 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi:

- ish tajribasi: 1–15 yil;
- hududiy taqsimot: shahar va tuman maktablari;
- jinsiy va yosh tarkibi turlicha.

Bu tanlov natijalarni umumlashtirish imkonini berdi.

Dizayn tafakkur bosqichlarini pedagogik moslashtirish:

1. Empatiya bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, qiyinchiliklari va individual ehtiyojlarini aniqlashga yo'naltirildi. Empatiya pedagogik sezgirlikni oshiradi va dars loyahasini o'quvchi markazli qiladi.

2. Muammoni aniqlash bosqichi. Pedagogik vaziyatlar qayta formulalandi. Masalan, "o'quvchilar mavzuni tushunmayapti" muammosi o'rniga "vizual idrokni qo'llab-quvvatlovchi metodlar yetarli emas" kabi aniq muammo qo'yildi.

3. G'oya yaratish bosqichi. Divergent fikrlash metodlari qo'llanildi. Bu jarayonda baholash cheklanmadi, erkin fikr generatsiyasi rag'batlantirildi.

4. Prototiplash bosqichi. O'qituvchilar yangi dars ishlanmalari, o'yinli metodlar va integrativ mashg'ulot modellarini ishlab chiqdi.

5. Test va refleksiya bosqichi. Sinov darslari o'tkazildi va reflektiv tahlil asosida takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyat darajasidagi o'zgarishlarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish asosida umumlashtirildi. Olingan ma'lumotlar dastlabki (diagnostik) va yakuniy (nazorat) bosqichlarda solishtirma tarzda o'rganildi.

1. Dastlabki diagnostika natijalari. Boshlang'ich o'lchov natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala guruhda ham kreativ kompetensiya ko'rsatkichlari o'rtacha darajada shakllangan.

Kreativ faoliyat quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- muammoni aniqlash va qayta formulalash qobiliyati;
- innovatsion g'oyalar ishlab chiqish darajasi;
- reflektiv tahlil yuritish ko'nikmasi;
- pedagogik moslashuvchanlik;
- hamkorlikda qaror qabul qilish malakasi.

Dastlabki natijalarga ko'ra:

Daraja	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Yuqori	21 %	23%
O'rta	52%	49%
Past	27%	28%

Mazkur ko'rsatkichlar ikki guruhning boshlang'ich sharoitlari deyarli teng ekanligini ko'rsatdi ($p > 0,05$).

2. Tajriba jarayonidagi dinamik o'zgarishlar. To'rt oy davom etgan dizayn tafakkur asosidagi metodik mashg'ulotlar natijasida tajriba guruhida ijobiy dinamik o'zgarishlar kuzatildi.

Empatiya bosqichining ta'siri. O'qituvchilarda o'quvchi ehtiyojini aniqlashga nisbatan sezgirlik oshdi. Intervyular shuni ko'rsatdiki, 78% ishtirokchilar darsni rejalashtirishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni boshlaganini qayd etdi.

Muammoni qayta formulalash. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda tizimlilik shakllandi. Oldin umumiy va mavhum tarzda ifodalangan muammolar aniq indikatorlar orqali ifodalana boshladi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini samaraliroq qildi.

G'oya generatsiyasi. Divergent fikrlash mashqlari natijasida o'qituvchilarning innovatsion takliflar soni oshdi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan yangi metodik ishlanmalar soni nazorat guruhiga nisbatan 2,3 baravar ko'p bo'ldi.

Prototiplash va sinov. O'qituvchilar tomonidan yaratilgan yangi dars modellarining 82%i amaliyotda muvaffaqiyatli sinovdan o'tdi va keyingi takomillashtirish jarayoniga kiritildi.

3. Yakuniy natijalar. Tajriba yakunida kreativ kompetensiya ko'rsatkichlari quyidagicha o'zgardi:

Daraja	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Yuqori	59 %	31 %
O'rta	33 %	46 %
Past	8 %	23 %

Statistik tahlil (Student t-mezoni) natijalari tajriba guruhidagi o'zgarishlarning ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi ($p < 0,05$). Nazorat guruhida esa o'sish minimal va statistik jihatdan sezilarli emasligi aniqlandi ($p > 0,05$).

4. Sifat tahlili natijalari. Sifat ko'rsatkichlari quyidagi o'zgarishlarni namoyon etdi:

Reflektiv faoliyatning chuqurlashuvi. Tajriba guruhi o'qituvchilari darsdan keyingi tahlilni tizimli olib borishni boshladi. Refleksiya yozuvlarida:

- o'quvchilarning reaksiyasi;
- qo'llangan metodning samaradorligi;
- kelgusi takomillashtirish yo'nalishlari aniq ko'rsatila boshlandi.

Psixologik o'zgarishlar. Intervyu natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 71% i pedagogik xatolarga nisbatan qo'rquv kamayganini va tajriba qilishga tayyorlik oshganini ta'kidladi. Bu ijodiy erkinlikning oshganidan dalolat beradi.

Hamkorlik kompetensiyasi. Dizayn tafakkur jarayonida jamoaviy muhokama va fikr almashish amaliyoti kengaydi. O'qituvchilarning 83% i jamoaviy ishlash orqali yangi g'oyalar paydo bo'lishini qayd etdi.

5. Kreativ kompetensiya indeksining umumiy o'sishi. Umumlashtirilgan indeks ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi:

Tajriba guruhi: 34% o'sish

Nazorat guruhi: 9% o'sish

Bu farq metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

6. Pedagogik jarayonga ta'sir. Tadqiqot natijalari dizayn tafakkur quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi:

- Dars loyihalash jarayoni strukturaviylashdi.
- Innovatsion metodlar soni oshdi.
- O'quvchilarning faolligi ko'tarildi.
- O'qituvchilarning kasbiy ishonchi mustahkamlandi.

Umumiy natijaviy xulosa. Natijalar shuni ko'rsatdiki, dizayn tafakkur texnologiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tizimli, barqaror va statistik jihatdan ishonchli samaradorlikka ega. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatni faollashtiradi, reflektiv tahlilni chuqurlashtiradi va innovatsion metodik madaniyatni shakllantiradi.

Miqdoriy natijalar. Tajriba guruhi kreativ kompetensiyasida 36% o'sish kuzatildi. Statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi ($p < 0,05$).

Sifat tahlili.

- Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil qilish ko'nikmasi shakllandi.
- O'qituvchilarning metodik portfeli boyidi.
- Refleksiya yozuvlari sifat jihatdan chuqurlashdi.
- Hamkorlik asosida dars loyihalash amaliyoti kengaydi.

Natijalar dizayn tafakkur konstruktiv pedagogika tamoyillariga mos kelishini tasdiqladi. Empatiya bosqichi o'qituvchining kasbiy sezgirligini kuchaytirdi. Muammoni qayta formulalash esa analitik fikrlashni rivojlantirdi.

Iteraktiv yondashuv pedagogik xatoni rivojlanish manbai sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantirdi. Bu esa psixologik barqarorlikni oshirdi.

Nazorat guruhida o'sish past darajada qolganligi metodologiyaning ta'sirini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Takomillashtirilgan pedagogik model 4 komponentdan iborat:

- Diagnostika;
- Dizayn jarayoni;
- Reflektiv monitoring;
- Professional qo'llab-quvvatlash;

- Model integrativ va jarayonli xarakterga ega.

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida dizayn tafakkur texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. O'tkazilgan nazariy va empirik izlanishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, dizayn tafakkur metodologiyasi o'qituvchining kasbiy faoliyatini an'anaviy reproduktiv modeldan konstruktiv, reflektiv va innovatsion modelga o'tkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim xulosalardan biri shundaki, ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayoni tasodifiy yoki intuitiv emas, balki tizimli tashkil etilgandagina barqaror natija beradi. Dizayn tafakkur aynan shunday tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Empatiya bosqichi pedagogning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganlik darajasini oshirsa, muammoni aniqlash bosqichi pedagogik vaziyatni chuqur tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. G'oya yaratish bosqichi divergent fikrlashni faollashtirib, stereotip metodlardan chiqish imkonini beradi. Prototiplash va test jarayonlari esa nazariy g'oyalarni amaliy sinovdan o'tkazish orqali reflektiv kompetensiyani mustahkamlaydi.

Empirik natijalar tajriba guruhida kreativ kompetensiyaning sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Xususan, o'qituvchilarda:

- muammoli vaziyatlarni qayta formulalash qobiliyati;
- innovatsion dars loyihalash ko'nikmasi;
- reflektiv tahlil yuritish malakasi;
- jamoaviy hamkorlik asosida qaror qabul qilish madaniyati izchil rivojlandi.

Statistik tahlil natijalari olingan o'zgarishlarning tasodifiy emasligini tasdiqladi. Bu esa dizayn tafakkur texnologiyasining pedagogik samaradorligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot shuningdek shuni ko'rsatdiki, dizayn tafakkur jarayoni o'qituvchilarda xatoga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllantiradi. Xato rivojlanish omili sifatida qabul qilinganda, pedagogik tajriba boyiydi va innovatsion g'oyalar paydo bo'lishi osonlashadi. Bu jihat kasbiy psixologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model diagnostik, jarayonli va reflektiv komponentlarni o'z ichiga olgan integrativ tuzilma sifatida asoslandi. Model pedagogik kreativlikni shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan mazkur tadqiqot natijalari:

- malaka oshirish kurslari dasturlarini yangilashda;
- metodik seminarlar mazmunini boyitishda;
- pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda;

– ta’lim jarayonini o‘quvchi markazli tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Ishtirokchilar sonining nisbatan chegaralanganligi natijalarni umumlashtirish imkoniyatini ma’lum darajada toraytiradi. Kelgusida turli hududlar va kengroq tanlov asosida tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dizayn tafakkur texnologiyasining o‘quvchilarning ijodiy tafakkuriga bilvosita ta’sirini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Umuman olganda, dizayn tafakkur texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali, tizimli va innovatsion metodologiya sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatni qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchining kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown, T. (2009). *Change by Design: How Design Thinking Creates New Alternatives for Business and Society*. Harper Business.
2. Liedtka, J., & Ogilvie, T. (2011). *Designing for Growth: A Design Thinking Toolkit for Managers*. Columbia University Press.
3. Abduraxmonova, N. (2025). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, 3(9).
4. Kalendarova, Z. K. (2024). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILİYATINI RIVOJLANTIRISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 189-195.
5. Abduraxmonova, N. (2022). bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2114-2121.
6. QIZI K. G. N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati // kasb-hunar ta’limi. – C. 127.
7. Abduraxmonova, N. A. (2025). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko‘nikmalarning roli. *Inter education & global study*, (1 (1)), 15-21.
8. Nigoraxon, A. (2024). Ijodiy faoliyatini takomillashtirishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual-shaxsiy sifatleri. *University Research Base*, 55-58.